

**Andijon davlat universiteti dotsenti,
(PhD)
Donoxon Ne'matova taqrizi ostida**

Sobirova Shahzoda Mirzoid qizi
Magistr, Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti

E-mail:

shahzodamirzoidovna2401@gmail.com

ORCID: 0007-0003-5590-379X (+998)
90 205 24 01

O'ZBEK TILI PERIFRAZALARINING PAYDO BO'LISH OMILLARI TAHLILI

Annotasiya: Ushbu maqola jamiyat taraqqiyoti natijasida hozirgi o'zbek adabiy tilining rivojlanishi hamda, tilimizga kirib kelayotgan yangidan yangi perifrazalar(tasviriy ifodalar) haqida, ularning tilimizni boyitishdagi hamda tilimizga jilo berishdagi xususiyatlari haqida ma'lumotlar berishga harakat qilindi.

Kalit so'zlar: perifraza, tasviriy ifoda, omonim perifrazalar, sinonim perifrazalar, obrazli, oq oltin, lug'at tarkibi, stilistik vosita, xarakterli belgi-xususiyatlarini.

Аннотация: Развитие нынешнего Узбекского литературного языка в результате развития общества, характеристики имитации (абзацы) для нашего языка обогатить наш язык, чтобы обогатить наш язык на нашем языке.

Ключевые слова: Парафа, синоним, парафтеза, морального, белый золота, словаря, стилистических лекарств, особенностей, характеристик.

Annotation: The development of the current Uzbek literary language as a result of the society's development, the characteristics of imitation (paragraphs) to our language enrich our language, to enrich our language to our language.

Key words: Parafics, Synonymous, paraphring, moral, white gold, dictionary, stylistic medication, features, characteristics.

Kirish. Tilshunoslikda perifraza ya'ni, tasviriy ifodalar qatlami borki, ular yordamida fikrimiz obrazli hamda ta'sirchan ifodalanadi. Masalan, tilimizda *oq oltin* yoki *dala malikasi* degan tasviriy ifodalar mavjud bo'lib, u bizga paxtani oltinga o'xshatib obrazli tushuntirib beradi. Shu tarzda *oq oltin* perifrazasi paxtaning ikkinchi nomi bo'lib qolgan.

Tilimizda har bir perifrazalarning yasaliish vaqti mavjud. Masalan, og'ir hamda uzoq mehnat natijasi bo'lgan paxtani *oq oltin* deb atash paxta yakkahokimligi davrlarida vujudga kelgan, chunki ana o'sha davrlarda paxta oltinga tenglashtirilgan. Yoki tilimizdagi *dala malikasi* tasviriy ifodasiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab yurtimizda makkajo'xori ko'p ekila boshlagan, shuning natijasida makkajo'xori mahsulotini malikaga o'xshatish ana o'sha davr matbuotining natijasidir. Gazetalarda hattoki, "Dala malikasiga keng yo'l!", "Dala malikasini ko'paytiraylik" kabi shoirmonand gaplar takror va takror yozilgan.

Perifrazalarning yaratilishi tilning barcha davrlari uchun birdek unumli emas. Eski o'zbek tili davrida tasviriy ifodalar bugungidek ko'p bo'lmagan. Tasviriy ifodalar hozirgi o'zbek tilida ko'plab uchraydi sababi, asosan ommaviy axborot vositalari bu qatlamdan samarali foydalanadilar.

Masalan:

Millat oydinlari – jadidlar

Bosh qonunimiz – konstitutsiya

Temir intizom – qonun

Adolat posbonlari- prokuratura xodimlari

Muqaddas o'choq- kutubxona

Yurt arslonlari – askarlar kabilarni misol keltirishimiz mumkin. Bu perifrazalar XXI asr tafakkurining mahsulidir. Shu kabi ko'plab tasviriy ifodalarni gazeta va jurnallarda, televideniyalarda kuzatishimiz mumkin.

Ba'zi tasviriy ifodalar juda muvaffaqiyatli chiqadi va tilda juda tez ommalashadi, oddiy odamlarning ham tiliga tushib kundalik nutqning tarkibiy qismiga aylanadi.

Masalan:

Yashil energetika- quyosh panellari, qayta tiklanuvchi energiya manbalari

Quyoshli xonadon – quyosh panellari bor xonadonlar

Samarqand – Sharq gavhari

O'zbekistonning oltin vodiysi – Farg'ona

Yashil makon – meva bog'i barpo etish va daraxtlar o'tkazish

Jadidlar sarboni – jadidlarning rahnamosi kabi ko'plab perifrazalarni misol keltirishimiz mumkin.

Perifrazalardagi bitta so'z har doim o'z ma'nosida bo'ladi shu jihat bilan ular iboralardan farq qiladi.¹ Perifrazalar (tasviriy ifoda) ham ba'zan tilda omonimlik va sinonimlik xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin.

Omonim tasviriy ifodalar:

1. Aql gimnastikasi- 1) matematika; 2) shaxmat.
2. Qora oltin- 1)neft; 2)ko'mir.²
3. Samo lochini-1)burgut; 2) uchuvchi
4. Asr vabosi – 1)giyohvandlik; 2)OITS

¹ U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili.Toshkent, 1992.-63-87-b.

² F.Bobojonov, K.Rajapova. O'zbek tili. Toshkent, 2017.-57-b.

Sinonim tasviriy ifodalar:

1. G'azal mulking sultoni||o'zbek tilining asoschisi - Alisher Navoiy.
2. Uyg'onish fasli|| fasllar kelinchagi- bahor.
3. Zangori ekran|| oynaiy jahon- televizor kabi. ³
4. Texnika asri|| atom asri – XX asr

Tilshunos olimlardan Ravshanxo'ja Rasulov va Ixtiyor Umirovlar perifrastalar borasidagi ilmiy tadqiqotlari asosida "O'zbek tili tasviriy ifodalarning izohli lug'ati"da ta'kidlashicha: "Tilshunoslikda shunday so'z yasovchi qo'shimchalar borki, ular orqali ham perifrastalar hosil qilish mumkin. Bunda ma'nodosh qo'shimchalar (so'z yasovchi qo'shimchalar sinonimiyasi emas) bilan bir xil yoki har xil o'zaklardan yasalgan so'zlarning perifrasta bo'lishi tushunilishi lozim. Bunda qo'shimchalardan –kor,-gir,- kash,- shunos kabilar parafrasta yasaydi. Qiyoslang: quruvchi o'rnida binokor, tilchi o'rnida tilshunos, yaratuvchi o'rnida bunyodkor, yozuvchi o'rnida qalamkash, kosmonavt o'rnida fazogir va boshqa tasviriy ta'sirchanlikni ifoda etuvchi qo'shimchalar" mavjudligini ilmiy jihatdan asoslab berganlar.⁴

Hozirgi o'zbek adabiy tili nutqiy vositalarga juda boy tillardan biri hisoblanadi. Ana shunday vositalardan biri perifrasta (tasviriy ifodalar) sanaladi.

Perifrastalar- predmet, voqea va hodisalarni o'z nomi bilan emas, balki ularning xarakterli belgi-xususiyatlarini tasviriy usullar orqali ifodalash jarayonidir. Ma'lumki, kishilar predmetga-uning ko'zga tashlanib turadigan muhim, xarakterli belgisiga ko'ra nom berishadi. Shu kabi perifrastalar ham predmet-hodisalarni nutq talabi bilan nomlaydi, ammo unda muhim xususiyatlarni ochib beruvchi tomonga e'tibor qilish lozim. Darhaqiqat, perifrastalar stilistik vosita sifatida nutqqa ko'tarinkilik, obrazlilik baxsh etadi, jamiyat taraqqiyoti talablaridan kelib chiqib, lug'at tarkibini boyitadi.

1. Toponimik tushunchalarni ifodalash asosida hosil qilingan perifrastalar:

Okean ortidagi davlat – Amerika, ozodlik oroli - Kuba, yashil qit'a - Avstraliya, sariq qit'a - Osiyo, qizil lolalar yurti - Gollandiya, ko'hna seniorlar yurti - Italiya, Tumanli Albiyon - Angliya, ko'hna qit'a - Yevropa, qasrlar mamlakati - Chexiya, choy diyori - Xitoy, mitti mamlakat - Vatikan, quduqlar mamlakati – Turkmaniston, allomalar yurti- O'rta Osiyo, vulqonlar diyori- Alyaska, dunyo tomi- Pomir, Jahon banki Vatani- Shveytsariya, ijodkorlar uyi- Do'rmon bog'i, ikki daryo oralig'i- Movarounnahr, islom o'chog'i- Saudiya Arabistoni, ozodlik oroli- Kuba, yashil vodi- Farg'ona, sharqning Rimi- Samarqand, vatanimiz yuragi – Toshkent, sayqali ro'yi zamin – Samarqand, islom dunyosining turizm poytaxti – Xorazm, qora qit'a – Afrika, sehrli diyori – Amerika qit'asi, vatanimiz yuragi – Toshkent, mangu muzliklar diyori – Antarktida, yashil shahar – Shahrisabz, non shahri – Toshkent, sharq gavhari – Samarqand, kunchiqar mamlakat – Xitoy, O'zbekiston oltin vodiysi – Farg'ona.

2. Qush va hayvonlar nomlariga aloqador perifrastalar:

Dengiz hokimi- kit, insonning do'sti- it, yetti xazinaning biri- parranda, sahro kemasi- tuya, tog' lochini, qushlar shoxi, baland cho'qqilar xo'jayini- burgut, cho'l balig'i- kaltakesak, qanotli

³ M.Hamroyev. Ona tili.Toshkent, 2012.-43-b

⁴ R.Rasulov, I.Umurov. O'zbek tili tasviriy ifodalarning izohli lug'ati. Toshkent, 1997.-6-7-b.

do'stlar -qushlar, qushlarning sarvari - to'ti, xarobalar sultoni, tun qushi - boyo'g'li, afsonaviy qush - semurg', baxt qushi - xumo, qanotli choparim - kabutar, bahor elchilari — qaldirg'ochlar, o'rmon shifokori – qizilishton, hayvonlar podshosi - sher, o'rmonning egasi - ayiq, o'rmon sanitari - bo'ri, tutqich bermas jonivor – tulki.

3. Ilm-fan va sportga doir perifrazalar:

Barcha hunarning toji — ilm, ilm o'chog'i — maktab, aql gimnastikasi — shaxmat, bilim bulog'i — kitob, aloqa vositasi — til, ilm pasporti — diplom, diniy targ'ibot o'chog'i — madrasa, ma'rifat maskani — kutubxona, salomatlik posbonlari - tibbiyot xodimlari, ilm zahmatkashlari — olimlar, yashil maydon - o'yingoh, qizil ajdaholar jamoasi - Manchestr Yunayted, ko'hna seniorlar jamoasi — Yuventus, moviy gvardiyachilar — Italiya terma jamoasi, Qirollik jamoa — Real, millionlar o'yini — futbol, charm qo'lqop o'yini – boks, yashil maydon malikalari – futbolchi qizlar, hayot ko'zgusi – gazeta, ilm manbayi– kitob, hayotimiz qomusi – Konstitutsiya, virtual olam – internet, aqlli mashina – kompyuter, ilm kaliti – kitob, millionlar o'yini – futbol, osmon ilmi – Astronomiya, qadimshunoslik – arxeologiya, tilsiz yov – olov, yerosti bo'roni – zilzila, yetti xazinaning biri – 1.sigir; 2.tovuq; 3.tegirmon; 4.objuvoz 5.mevali daraxt; 6.ipak qurti; 7.asalari, zangori kema – paxta terim mashinasi, xalqchil qomus – konstitutsiya, temir intizom – qonun, bosh qonunimiz – konstitutsiya, quyoshli xonadon – quyosh paneli bor uylar, yashil energetika – qayta tiklanuvchi energiya manbalari, raketka ustalari – tennischilar, bunyodkor- yaratuvchi, buyuk hakim- Abu Ali ibn Sino, davlat ustunlari- rahbarlar, dunyoni erta taniganlar- shoir va olimlar, zangori kema kapitanlari- mexanizatorlar, zarshunoslar- pillakorlar, kelajak avlod- yoshlar, mavjudotlar sultoni- inson, mo'yqalam sohibi- rassom, osoyishtalik posbonlari- militsiya, samo lochini- uchuvchi, til muhandislari – tilshunoslar, futbol qiroli- Pele, sho'rpeshona- baxtsiz odam, yaylov bahodirlari- cho'ponlar, qalamkash, qalam ahli- ijodkorlar, Vatan posbonlari- askarlar.

4. Oilaviy muhitdagi turli-tuman munosabatlarni ifodalovchi perifrazalar:

Padari buzrukvor — ota, validai muhtarama — ona, uyqusiz tunlar hamrohi - farzand, ko'krak bolasi - chaqaloq, umr - yo'ldoshlar - er-xotin, qahramon ona - o'n va undan ortiq farzandni voyaga yetkazgan ona ma'nosida, hayotning birinchi bobi - ona, jufti halol - xotin, o'choq boshi egasi — ayol.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tasviriy ifodalarni bilish o'quvchi yoshlar uchun ham kattalar uchun ham birday foydalidir. Nutqda ulardan to'g'ri, o'rinli hamda jo'yali foydalanish orqali fikr ta'sirchan ifodalanadi.

Tilshunoslikning lug'at tarkibi ustida olib borilgan ishlar shuni ko'rsatadiki, so'z ma'nolarining o'zgarishi tasodifiy bo'lmaydi, balki jamiyatning taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq qonuniy hodisadir. Shu sababdan, tilshunoslikda perifrazalarni to'liq kalkalash yo'li bilan o'zlashtirish, tilning lug'at tarkibini boyituvchi ijobiy hodisalardan biri hisoblanadi. Demak, tilimizdagi perifrazalarni jamiyat tarixi bilan birgalikda olib tekshirish natijasida tilimizning lug'at boyligi boyishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Rahmmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili.Toshkent, 1992.-63-87-b.
2. F.Bobojonov, K.Rajapova. O'zbek tili. Toshkent, 2017.-57-b.
3. M.Hamroyev. Ona tili.Toshkent, 2012.-43-b
4. R.Rasulov, I.Umirov. O'zbek tili tasviriy ifodalarning izohli lug'ati. Toshkent, 1997.-6-7-b.

5. A.Nurmonov, A.Sobirov, N.Qosimov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 2001.-202-220-b.
6. "Yangi O'zbekiston"; "Jadid"; "Xalq so'zi" gazetalari. "Saodat" jurnali.
7. Умиров И. Ўзбек тилида парафразалар: Филол. Фанлари номз. дисс... автореф. – Тошкент, 1996.
8. Шамсиддинов Ҳ. Перифраза хусусида айрим мулоҳазалар // ЎТА. –Тошкент, 1993. - №4. –6.29-55.
9. Abduazizov A. "O'zbek tilining semantikasi va uslubi", Toshkent, 2018.
10. G'ulomov S. "Tasviriy ifodalar va ularning uslubiy xususiyatlari", Samarqand, 2020.
11. Normatov B. "O'zbek tilida metafora va uning lingvistik xususiyatlari", Toshkent, 2017.
12. Rahimov H. "Frazologizmlar: Semantik va uslubiy o'ziga xosliklar", Buxoro, 2019.
13. Sharipov U. "O'zbek tili stilistikasi", Toshkent, 2016.